



XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHI

Abduraximova Qunduzxon Mamaro'zi qizi

"UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE"

Tarix yo'nalishi sirtqi 4- kurs 22.01 guruh talabasi

Email: qunduzxonabdurahimova@gmail.com +998905610725

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola Xiva xonligining tashkil topishi haqida yozilgan bo'lib uning tuzilishi, funksiyalari, aholi bilan aloqalari taxlil qilinadi. Maqolada Xiva xonligida kechgan siyosiy jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy xayot masalalari taxlil qilinadi. Ushbu maqola Markaziy Osiyo tarixida muxim o'rinnegalagan Xiva xonligining tashkil topishini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligining tashkil topishi, xonligining xududi, ma'muriy tuzilishi, ijtimoiy-siyosiy jarayon.

Kirish:

Xiva xonligi (1511-1920) O'rta osiyodagi eng muxim va uzoq davom etgan siyosiy jarayonlardan biri bo'lganligi bilan ajralib turadi. Xiva xonligining boshqaruv shakli monarxiya bo'lgan. Xonlik o'z davrida hududi O'rta Osiyonig'arbiy qismini, hozirgi O'zbekiston va Turkamnistonning bir qismini o'z ichiga olgan. Xiva xonligini tashkil topishi O'rta osiyodagi davlatlar orasida iqtisodiy va madaniy aloqalar ornatishda muxim ro'l o'ynagan.

XV asr oxiri XVI asr birinchi yarmi Xiva xonligi tarixini yoritishda XIX-XX asr arxeologlari, tarixchi olimlari tadqiqot ishlari aloxida o'rinn tutadi. Davlatning poytaxti dastlab Ko'hna Urganch bo'lgan, keyinchalik (XVI asr 70-yillaridan) Xiva shaxri bo'lgan.

Xiva xonligida sulolaviy xonlar davrida hududlar o'zgarib turgan.

Dastlabki davrda: Dastlabki davrda Arabshoxiyalar keyinchalik esa Qo'ng'irotlar sulolasini boshqargan. Xonlikning hududi geografik jihatdan olib qaralganda, G'arbdan Kaspiy dengizi shimoldan esa Xiva xonligining siyosiy ta'sir doirasi kengayib borishi natijasida Rossiya imperyasi bilan chegaradosh bo'lgan.



Qo'ng'irot sulolasidavrida esa xonlikning hududi yanada kengaygan.

O'rgebnishlardan kelib chiqib shuni takidlash lozimki XVI-XIX asrlarda Xiva xonligi xududi doimo o'zgarib turgan. Xiva xonlik xududiga ruslar bosqinidan keyin Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan 62237,2km² yer maydoniga ega qaram davlatga aylanib qolgan. Xonlik axolisi soni xam doimo o'zgarib turgan. Aholi soni o'rtacha 1 mln kishini tashkil etardi. Aholining ko'p qismini o'zbeklar, turkmanlar,qoraqalpoqlar,kam sonli forslar, ruslar, arablar va albatta boshqa millat vakillari tashkil etardi. Xonlikda davlat tili etib o'zbek tili etib belgilangan. Qo'qon va Buxoro xonliklaridan farqi shundaki xon farmonlari davlatga oid xujjatlar faqat o'zbek tilida yozilgan.

Xiva xonligida asosiy qarorlar xon tomonidan qabul qilingan bo'lsada, amaldorlarning xonlik boshqaruvidagi mavqeyi baland bo'lgan edi. Mansab va unvonlar harbiy ma'muriy, harbiy va diniy toifalarga bo'lingan. Inoq,otaliq, biy, amir ul umaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi va boshqa mansab vakillari xonlik iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy va boshqa ko'plab jabxalrda juda muxim o'rinni egalagan.

XVIII asrning boshlariga kelib Rossiya hukumatining Xiva xonligi ichki ishlariga aralashuvi kuchaydi. Rossiya imperiyasi hukmron doiralari O'rta Osiyo, jumladan Xiva xonligini ham bosib olishni rejalashtira boshlashgan edi. Rossiya imperatori Pyotr I ning 1717-yilda Xivaga uyushtirgan Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasi ham aynan shu maqsadda tashkil etilgan edi. Ammo Sherg'ozixonning hiyla ishlatishi natijasida 6 ming kishidan iborat bu ekspeditsiya bir kechada qirib tashlandi. Shunga qaramasdan to O'rta Osiyo bosib olinmagunicha Rossiya imperiyasining bunday harakatlari davom etadi. 1873-yili Xiva xonligi Rossiya tomonidan ishg'ol qilinadi. 1920-yilga kelib Xiva xonligi bosib olinadi.

Asosiy qism:

XVI asr boshlarida Xorazm xududi Temuriylar tomonidan boshqarilar edi. O'sha davrda kuchli davlat tuzishga intilaytogan Muhammad Shayboniyxon Movvarounnaxrni egalagach endi o'z nazarini Xorazmga qaratadi. Sababi bu davrda



Temuriy shaxzodalar o'ratsidagi ichki ziddiyatlar bosh boshdoqliklar juda avj olgandi. Dastlab Shayboniyxon 1505-yilda Urganchni egalagach Xorazmda xam temuriylar xukmronligini tugatdi. 1510-yilga kelib Xorazmni safaviylar bosib oladi.

Safaviylar hukmronligi davrida Vazir shaxri qozisi Umar Shayx boshchiligidagi Xorazm xalqi ularga qarshi xalq xarakatini boshlaydilar. Qo'zg'olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Xozarsp shaxarlridagi Eron safaviylari noiblari va qo'shinini mag'lub etadilar. Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lган Umar Shayx ota avlodalari Qipchoq Dashtidagi ko'chmanchi o'zbeklarning Berka Sulton avlodidan bo'lган Elbarsxonga maktub yo'llab uni Xorazmga taklif qiladi.

1511-yilda qozi Umar Shayxning taklifiga binoan Elbarsxon Xorazm taxtiga o'tiradi. Shu tariqa Xorazmda Arabshoxiylar sulolasiga davri boshlanadi. Elbarsxon xukmronligi davrida mamlakat xududlarini xozirgi turkmanistonning janubiy qismi. Eronning shimolidagi Saxars viloyati, Mang'ishloq, Abulxon, Durun Xisobiga ancha kengaytirdi. Elbarsxon tirklik vaqtidayoq ayirmachi zodagonlar, Urug' boshliqlari, xarbiylar o'rtasida ayirmachilik xarakati axj olgan edi. Uning o'limidan so'ng bu xarakatlar juda keskin tus olib So'fiyoxon davrida xokimyatda Berka Sulton avlodalri butunlay chetlashib qoldi. Hukmronlik esa Aminak xonadoni vakillari qo'liga o'tadi. Ushbu kurashlardan o'z manfatlari uchun foyadalangan Buxoro xukmdori shayboniy Ubaydullaxon bir yil muddat Xorazmni egalashga muvaffaq bo'ladi..

Bu davrda xonlik taxti Aminak avlodidan bo'lган Avaneshxonga tegishli bo'lib Berka Sulton avlodidan bo'lган taxt davogarlari Buxoroga Qochishga majbur bo'lган. Avaneshxonning katta o'g'li Dinmuxammad Eron bilan xududlarni o'z ta'siriga olish masalsidagi maxfiy uchrashuvlari Ubaydulloxonning Xorazmga yurish qilishiga rasman sabab bo'ldi. Ubaydulloxon bilan birga Xorazm yurishiga Toshkent, Samarqand, Hisor xokimlari xam o'z xarbiy bo'linmalari bilan ishtiroy etganlar. Avaneshxonning qo'shini mag'lubiyatga uchratilib o'zi esa Biyotqirdagi jangda o'ldiriladi. Jangda g'olib bo'lган Ubaydulloxon o'g'li Abdulazizzonni Xorazmga noib etib tayinlab xududni to'rt qismga bo'ladi. Ubaydullaxon 1538 yilda



yana Xorazmga qo'shin tortdi. Xozarsp va Xiva shaxarlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda buxoro qo'shnlari mag'lubiyatga uchradi. Shayboniylardan ozod bo'lган Xoarzmda ichki kurashlar avj olib ketgan. Davlatdagi Urganch, Kat, Yangi shaxar, Xiva, Xozarspshaxarlari va viloyat hokimlarining markazdan uzoqlashib o'zlarini amalda mustaqil xisoblar edilar. Boshqaruvga intilish shu qadar kuchaydiki ayrim sharlarda birdaniga ikkita hukmdor tomidan boshqarildi. O'zaro taxt uchun kurashlar ayniqsa Elbarsxon va Anushaxon avlodlari o'rtaida juda kuchaygan. Bunday xokimyat uchun kurashlar natijasida qisqa mudatda hokimyatda o'nlab xukmdorlar almashgan. Bunday ichki kurashlar natijasida markaziy hokimyat deyarli inqirozga uchragan. O'zaro hokimyat uchun kurashlar o'z navbatida albatta iqtisodiy hayotning ham izdan chiqishiga sabab bo'lgan.

XVI asrning birinchi yarmida Xojimxon yani (Xoji Muhammadxon, 1558-1593, 1598-1602 yillar) xukmronligi davrida Xorzmadi o'zaro urushlarga biroz bo'lsad barxam berildi. Shuningdek tinchlik osoyishtalik o'rnatildi. Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha Xojimxonga ijobiy ta'rif berilib, "uni tajribali, adolatli, taqvodor xukmdor" bo'lganligi ta'kidlanadi. U o'z xukmronligi davrida sug'orish va dexqonchilik, xunarmandchilik va savdo-sotiq ishlariga jiddiy etibor qaratgan shaxs. Xojimxon davrida tashqi savdo xam ancha rivoj topdi. Xojimxonning xukmronligi davrida poytaxt Urganchdan Xivaga ko'chirildi. Poytaxtning ko'chirilishiga asosiy sabab Amudaryo o'zaninig o'zgarib Kaspiy dengiziga oqmay qo'yishi natijasida Urganch va uning atrofida suv tanqisligi bo'lsa ikikinchi tamondan Xivaning bu davrdagi siyosiy va iqtisodiy mavqeyi ancha kuchayganligi hamda asosiy savdo markaziga aylanganli edi. Shu davrdan boshlab poytaxt Xivaga ko'chirilgandan so'ng bu davlatning nomi Xiva xonligi deb atala boshlangan.

Xiva xonligida davlat boshqaruv tizimida unvon va mansablarni saroy, xarbiy va diniy unvon hamda amallarga bo'lib o'rganish mumkin. Bu tasnif sof nazariy bo'lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar soxalar bo'yicha berilmagan. Xonlikda amaldor va unvon egasi ko'pincha xonga nisbatan shaxsiy sadoqati, qavmi yaqinligidan bir mansabdan boshqa bir mansabga o'tib, unvonlar



soxibiga aylangan. Xonlikda eng oliy unvon xon bo'lib, u ma'muriy, siyosiy va xarbiy vakolatlarga ega bo'lgan. Xonlikdagi viloyat hokimlari xon tomonidan, masjid-qavmlarning qozi va oqsoqollari esa viloyat xokimlari tomonidan tayinlangan.

Xiva xonligida davlat tizimida Buxoro amirligi va Qo'qon onligidan farqli o'laroq, xon xuzurida oliy kengash amal qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu kenga Muhammad Raximxon I davrida tuzilgan. Bu oliy kengash turli davo va jinoiy ishlarni ko'ish va qaror chiqarish huquqiga ega bo'lgan. Bu oli yengashda boshqa amaldorlarga qaraganda Ko'proq inoq, Shayx ul-islom, devonbegi va yasovulboshilar xal etuvchi ovozga ega bo'lganlar. Kengash majlisi masalaning muximligiga qarab xon tomonidan chaqirilar edi.

Bu tor doiradagi kengash garchi davlat tshkiloti sifatida rasmiylashtirilmagan bo'lsada, uning qarori xoning qaroridek ko'rsatilsad, amalda yuqori qonun chiqaruvchi ma'muriy va sud hokimiyati edi. Garchi kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarni muxokama qila olsa-da. Muxokama qilingan masalalar bo'yicha avallo xonning xoxish - irodasiga bog'liq bo'lgan.

Xiva xonligida davlat tuzilishi o'zinning mukkamaligi jixatidan G'arbiy Yevropa davlatlari tuzilishi darajasida bo'lmasada, biroq ma'lum idora qilish tizimi mavjuq bo'lib, yetarli darajada tartibli edi. Shunga binoan yuqrida takidlaganimizdek davlat mansablari saroy-mamuriy, diniy va xarbiy lavozimlarga bo'linar edi. Bu vazifalarni bajaruvchilarga saroy xazinasidan tegishli maosh va mukofatlar berilgan.

Xonlikdagi turli-tuman amaldorlar va xizmatkorlarning mavjudligi Xiva xonligidagi kata boshqaruva apparati bo'lganligi, mukammal boshqaruva siyosati yuritilganligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar taxlili:

Xiva xonligining tashkil topishi va boshqaruva tizimi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, nafaqat O'zbekistonlik balki chet ellik olimlarning asarlarida xam o'z aksini topgan. Ushbu adabiyotlar va esdaliklar Xiva xonligining tashkil topishi, ijtimoiy tashkiloti va boshqaruva usullarini o'rghanishda muhim ahamiyatga ega



hisoblanadi. Quyida o’zbek olimlarning asarlaridan foydalangan adabiyotlar taxlil qilinadi.

O’zbekistonlik olim I.Mo’mnovning “Xorazmning to xozirgi kungacha bo’lgan ta’rxi” nomli asar yozgan. Ushbu asarda Xiva xonligining tarixiga oid xisoblanib tashkil topish jarayoni sulolar alamshinuvi, ijtimoiy iqtisodiy hayot, savdo-sotiq va ko’plab jabxalar xaqida taxlil qilinadi.

O’zbekistonlik tarixshunos olim D.Alimovaning “O’zbekiston tarixi” (XVI-XIX asrning birinchi yarmi) asari Xiva xonligining tashkil topishi uning siyosiy tuzilmasi, ijtimoiy iqtisodiy hayoti, boshqa xonlik bilan munosabatlari aholisi, va Xiva xonligi tarixiga oid ko’plab masalalarni tadbiq qiladi.

Y.G’ulomov “Xorazmning sug’orilish tarixi” asarini yozgan. Asar Xiva xonligi tarixiga oid ko’plab masalalarni o’z ichiga olgan. Asardan xonlikning tashkil topishi, yer egaligi, ijtimoiy hayot, ahali mashg’ulotlari va ko’plab masalalarni o’z ichiga oladi va taxlil qiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Xiva xonligining tashkil topish jarayoni O’rta Osiyo tarixidagi juda muxum bosqich hisoblanadi. Xonlikning tashkil topishi uning yetuk mustaqil davlatga aylanishida juda ko’plab muholifatchi kuchlarga qarshi janglar, ichki ziddiyatlarga qarshi mohirona kurashlar olib borilganligini ko’rishimiz mumkun. Xiva xonligining tashkil topish jarayonlarida albatta islam dini aqidalariga amal qilgan xolda mustaqil davlat tuzilib idora etilgan. Xonlikning ijtimoiy hayot jarayonlarida Islom olami din ulamolari mahalliy hokimlar muxum ro’l o’ynagan. XVI asrda tashkil topgan Xiva xonligida XIX asrga kelib xar jabxadada rivojlangan manaviy madaniy hayot vujudga kelganligini ko’rishimiz mumkun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mullo Olim Maxmud Xoji “Tarixi Turkiston” Qarshi ‘Nasaf’ 1992
2. “O’zbekiston davlatchiligi tarixi “ 2 Boboyev.X Toshkent 2009
3. O’zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi” Bohodr Eshonov. Toshkent 2019



- 4."O'zbekiston davlatchiligi tarixi" 1 Azamat Ziyo
- 5."O'zbekiston tarixi " Q.Ergashev Toshkent 2015
- 6."O'zbekiston tarixi" II kitob B.J.Eshov. A.A.Odilov Toshkent 2024